



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчеҳра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шоқир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш муҳандислик-иқтисодиёт  
институти

**Халикова Раҳбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариш давлат университети

**Маҳкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Атамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафасева Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуридинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозоғистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Саипова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдуллаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозоғистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**


**Тўхтабасв Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети

## МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


<b>1. Гулчеҳра Агзамова</b> АШТАРХОНИЙЛАР СУЛОЛАСИ ҲУКМРОНЛИГИ ДАВРИДА АҲОЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲВОЛИГА ОИД АЙРИМ МАСАЛАЛАР (17-18-ЮЗЙИЛЛИК ЎРТАЛАРИ).....	5
<b>2. Ильдар Азизов</b> РАЗВИТИЕ МЕЖПАРЛАМЕНТСКОГО СОТРУДНИЧЕСТВА ОЛИЙ МАЖЛИСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН С ПАРЛАМЕНТСКОЙ АССАМБЛЕЕЙ ОБСЕ.....	13
<b>3. Farangis Azimova</b> ЎРТА АСРЛАРДА ДАШТИ ҚИПЧОҚДА ЮЗ БЕРГАН СИЁСИЙ-ЭТНИК ЖАРАЁНЛАРНИНГ АМУДАРЁ – СИРДАРЁ ОРАЛИГИДАГИ ВОҲАЛАРГА ТАЪСИРИ..	19
<b>4. Феруза Амонова</b> XIX АСР ОХИРИ – XX АСР БОШЛАРИДА ҚОРАҚЎЛЧИЛИК ТАРИХИ (БУХОРО АМИРЛИГИ МИСОЛИДА).....	28
<b>5. Ikrom Djurayev</b> MARKAZIY OSIYODA QADIMGI KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ AHOLINING O‘ZARO MUNOSABATLARI.....	34
<b>6. Фарходжон Исматуллаев</b> O‘ZBEKISTONNING YEVROPA ITTIFOQI BILAN HAMKORLIK ALOQALARI TARIXSHUNOSLIGINING AYRIM JIHLTLARI.....	41
<b>7. Dilshod Komolov, Shodiyor Do‘smurodov</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA PROKURATURA IDORALARINING TASHKIL TOPISHI VA RIVOJLANISHI TARIXI (1991-2000 yillar misolida).....	49
<b>8. Dilshod Komolov, Murodali Xamdamov</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI.....	56
<b>9. Pyosbek Mamatkarimov</b> SOSIALISTIK REALIZMNING O‘ZBEK ADABIYOTIGA KIRIB KELISHI TARIXI.....	64
<b>10. Yosin Ortiqov, Ra’no Ergasheva</b> QO‘QON SHAHRI TARIXI HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR.....	69
<b>11. Ибрагимжан Ташматов</b> РЕЛИГИОЗНАЯ ТОЛЕРАНТНОСТЬ В УЗБЕКИСТАНЕ (История и современность).....	74
<b>12. Aziza Shotemirova</b> IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA SANOAT KORXONALARIDA O‘ZBEKISTON XOTIN-QIZLARINING O‘RNI (SAMARQAND VILOYATI MISOLIDA).....	80



**Dilshod Pulatovich Komolov,**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası professori  
tarix fanlari doktori(DSc),  
**Murodali Xamdamov,**  
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti  
Tarix va ijtimoiy fanlar kafedrası magistranti

## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUD TIZIMINING RAQAMLASHTIRILISHI**

**For citation:** Dilshod P.Komolov, Murodali Xamdamov. DIGITALIZATION OF THE JUDICIAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN. Look to the past. 2025, vol. 8, issue 1, pp.56-63

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.14803475>

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasida sud tizimining raqamlashtirilishi, uning bosqichlari, sudyalarning IT bo‘yicha bilimlarini oshirish borasida amalga oshirilgan ishlar, sudlarga masofadan turib murojaat qilish, sudyalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek, sudyalar faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta‘minlash maqsadida tizimga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etilishi yoritib berilgan.

**Kalit so‘zlar:** sudya, dastur, elektron bilet, kadr, nomzod, reyting, klub, forum.

---

**Дилшод Пулатович Комолов,**  
Университет экономики и педагогики  
Профессор кафедры Истории и социальных наук  
доктор исторических наук(DSc),  
**Муродали Хамдамов,**  
Университет экономики и педагогики  
Магистрант кафедры Истории и социальных наук

## **ЦИФРОВИЗАЦИЯ СУДЕБНОЙ СИСТЕМЫ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье освещаются цифровизация судебной системы в Республике Узбекистан, ее этапы, работа повышению по информационным технологиям знаний судей, дистанционное обращение в суды, подбор, подготовка, назначение на должности судей, а также широкое внедрение в систему современных информационных технологий в целях обеспечения беспристрастности и прозрачности оценки деятельности судей.

**Ключевые слова:** судья, программа, электронный билет, персонал, кандидат, рейтинг, клуб, Форум.

**Dilshod P.Komolov,**  
University of Economics and Pedagogy  
Professor of the Department of History and Social Sciences,  
Doctor of Historical Sciences(DSc),  
**Murodali Xamdamov,**  
University of Economics and Pedagogy  
Master's student of the Department of History and Social Sciences

## DIGITALIZATION OF THE JUDICIAL SYSTEM OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

### ABSTRACT

This article highlights the digitalization of the judicial system in the Republic of Uzbekistan, its stages, work to improve the IT knowledge of judges, remote access to courts, selection, training, appointment of judges, as well as the widespread introduction of modern information technologies into the system in order to ensure the impartiality and transparency of the evaluation of judges.

**Index Terms:** judge, program, electronic ticket, staff, candidate, rating, club, Forum.

### 1.Dolzarbligi:

So'nggi yillarda sudlar faoliyatida zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi. Sudlarda elektron hujjat almashinuvi, sud statistikasini yuritish, sud amaliyotini tahlil qilish va sudlov ishlarini yuritishda protsessual muddatlardan samarali foydalanishni ta'minlash maqsadida markazlashtirilgan boshqaruv platformasidagi elektron ma'lumotlar bazasi ishga tushirildi. Elektron ma'lumotlar bazasi, bir tomondan, sudyalarda va sud apparati xodimlariga ma'lumotlarni saqlash, sud hujjatlarini tuzish, chop etish va protsessual muddatlardan unumli foydalanishda qo'l kelmoqda. Boshqa tomondan, sudda ishlarning to'g'ri, tezkor va qonuniy yuritilishini muntazam nazorat qilinishini ta'minlamoqda. Ishlarni inson omilisiz, ya'ni avtomatik ravishda taqsimlash, sud qarorlarini rasmiy veb-saytda e'lon qilish, sudga elektron murojaat va sud hujjatlarini tarafdorlarga elektron shaklda yuborish, sud majlislarini audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish kabi zamonaviy yondashuvlar evaziga odil sudlov samaradorligiga erishilmoqda. Jamiyatda yuz berayotgan ushbu jarayonlarni tarixiy nuqtai-nazardan tahlil qilish va o'rganish tarix fani oldida turgan dolzarb muammolardan biri sanaladi.

### 2.Tadqiqot metodologiyasi:

Maqolada tarixiylik va qiyosiy tahlil, xronologik tizimli tahlil, kompleks yondashish, xolislik kabi tadqiqot usullaridan foydalanildi.

### 3.Tadqiqot natijalari:

Insoniyat tamaddunida beqiyos o'ringa ega bo'lgan XXI asrni raqamli texnologiyalarsiz tasavvur etish mushkul. Zero, u kundalik ehtiyojimizga, har bir tarmoqning rivojlanish mezoniga aylanmoqda. Shu bois sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta'minlash, nufuzini oshirish, tizimni demokratlashtirish va takomillashtirishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirish maqsadida sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari keng joriy etilmoqda.

Raqamlashtirish avvalo, fuqarolarni sudlarga byurokratik to'siqlarsiz murojaat qilish imkoniyatini bersa, ikkinchidan, odil sudlov faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini ta'minlash va sudyalarga nisbatan jamiyat ishonchini oshirishning muhim vositasi hisoblanadi.

Yangi O'zbekistonda sudlar faoliyatini raqamlashtirish bilan bog'liq tarixiy jarayonlar ikki davrga bo'linadi:

- birinchi davr 2017-2020-yillar;
- ikkinchi davr 2021-yildan keyingi yillar.

2017-yildan sud tizimida tub o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. 2017-yil 21-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan «O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi farmonning qabul qilinishi bu borada dastlabki o'zgarishlarni boshlab berdi[1]. Farmonning 18-bandida O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish

vazirligi Oliy sud bilan birgalikda uch oy muddatda sudlar faoliyatida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish holatini tanqidiy o'rganish hamda sud tizimi faoliyati samaradorligini va aholining odil sudlovga erishish darajasini oshirishga qaratilgan axborot tizimlari va resurslarini yanada takomillashtirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish haqida ko'rsatmalar berilgan edi[1].

Farmonda ko'rsatilgan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida 2017-yil 30-avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada kengroq joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan quyidagilar sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini yanada keng joriy etishning asosiy vazifalari etib belgilandi:

birinchidan — sudlar faoliyatining ochiqligi, shaffofligi va tezkorligini ta'minlash, sudlov ishlarini yurgizish sifati va aholining odil sudlovdan xabardorlik darajasini oshirish, sud xodimlari tomonidan sansalorlik, byurokratizm va suiiste'molchilik faktlariga barham berish;

ikkinchidan — sudlarda ishlarning o'z vaqtida ko'rilishini nazorat qilishning samarali tizimini yaratish, sudlov ishlarini yurgizishdagi muammolar va kamchiliklarni aniqlash hamda ularni hal etish choralari ko'rish maqsadida sudlar ishlarini avtomatlashtirish va ularning faoliyati to'g'risidagi axborotlarni tizimlashtirish;

uchinchidan — odil sudlovni amalga oshirish hamda sudlar qarorlarining ijrosini ta'minlashda sudlarning surishtiruv, dastlabki tergov va majburiy ijro organlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash;

to'rtinchidan — sudlarda ish yuritish samaradorligi oshirilishini, sudlar faoliyati to'g'risidagi axborot ochiqligini, shuningdek, aholiga va tadbirkorlik subyektlariga ko'rsatiladigan interaktiv xizmatlar ro'yxati kengaytirilishi hamda sifati yaxshilanishini ta'minlaydigan axborot tizimlari va resurslarini takomillashtirish;

beshinchidan — sudyalarning va sudlar xodimlarining ishda zamonaviy kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishda ularning kompyuter savodxonligi, amaliy ko'nikmalari darajasini oshirish;

oltinchidan — sudlar tizimida axborot xavfsizligini va elektron hujjatlarning xavfsiz aylanishini ta'minlash.

Qarorga ilova tarzida 2017-2020-yillarda Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish dasturi qabul qilindi. Dasturda sudlar uchun kadrlar tayyorlash jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etishga alohida e'tibor qaratilgan edi. Xususan, sudyalarning hamda sud xodimlarining kompyuter texnikasi va axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan ish jarayonida foydalanishlari bo'yicha bilimlarini oshirish vazifalari belgilangan edi.

Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi natijasida sudlarga masofadan turib murojaat qilish, sud majlislarida videokonferensaloqa tizimidan foydalanib ishtirok etish, sud qarorlarini Internet tarmog'ida e'lon qilish, ijro hujjatlarini elektron shaklda majburiy ijroga yuborish tizimlari joriy etildi.

2020-yil 3-sentabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori sohadagi islohotlarning yangi davrini boshlab berdi[2]. Mazkur qarorga asosan 2020-2023-yillarda sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish dasturi tasdiqlandi. Dasturga muvofiq 2021-yil 1-yanvardan boshlab barcha sudlarda sud majlislarini ish bo'yicha taraflarning iltimosnomasi va raislik qiluvchining roziligi bilan audioyozuvdan foydalangan holda qayd etib borish hamda sud majlislari bayonnomalarini ushbu tizimdan foydalangan holda shakllantirilishi yo'lga qo'yildi. 2021-yil 1-iyuldan boshlab apellyatsiya va kassatsiya instansiyasi sudlarida ishlarni sudyalarning o'rtasida avtomatik ravishda taqsimlash va 2021-yil 1-oktabrdan boshlab barcha ishtirokchilarni sud majlislarining vaqti va joyi haqida «SMS» xabar orqali bepul asosda xabardor qilish tartibi joriy etildi[2].

2022-yil 1-yanvardan boshlab sud qarorlarini ish bo'yicha taraflarga onlayn tarzda, ularning iltimosnomasi bo'yicha esa qog'oz shaklida taqdim etish, shuningdek, 2022-yil 1-iyulga qadar sud

hokimiyati organlari faoliyatida, shu jumladan fuqarolar va tadbirkorlik subyektlariga odil sudlovga erishishda qulaylik yaratish maqsadida 10 ga yaqin interaktiv xizmatlar faoliyat yurita boshladi. 2023-yil 1-yanvardan boshlab sud ishlarini davlat arxiviga elektron shaklda topshirish va qabul qilish tartiblari belgilandi[3].

Qarorga asosan Sudyalar oliy maktabi sudyalik lavozimiga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish bo'yicha tashkil etilgan ta'lim yo'nalishlarining o'quv dasturlariga sudlar faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimlaridan foydalanish bo'yicha alohida o'quv moduli kiritildi. 2022-yil 1-yanvardan boshlab Sudyalar oliy kengashiga sudyalar, sudyalik lavozimlariga nomzodlar tomonidan elektron murojaat qilish, suhbat jarayonida beriladigan savollar va vazifalarni axborot tizimi yordamida avtomatlashtirilgan holda tanlash, Sudyalar oliy maktabiga uning rasmiy veb-sayti orqali ariza va murojaatlarni yo'llash, professor-o'qituvchilar va tinglovchilarning reyting ko'rsatkichlarini elektron tarzda shakllantirish, sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tayyorlash, sudyalar va sudlar apparati xodimlarini qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish kurslari tinglovchilarning o'quv jarayonini onlayn tarzda nazorat qilish tartiblari joriy etildi[4].

2020-yil 7-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta'minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi[5]. Farmonga ko'ra, sudyalarning odil sudlovni amalga oshirish bo'yicha kasbiy faoliyatini har qanday ko'rinishdagi tashqi ta'sirlardan samarali muhofaza qilishni ta'minlaydigan huquqiy mexanizmlarni yaratish, sudyalikka kadrlarni tanlash, tayyorlash, lavozimga tayinlash, shuningdek, sudyalar faoliyatini baholashda xolislik va shaffoflikni ta'minlash, ushbu jarayonlarga zamonaviy axborot texnologiyalarini izchil joriy qilish, sudyalar va sud apparati xodimlari orasida korrupsiya holatlarining oldini olish va barvaqt aniqlashga qaratilgan tizimni yo'lga qo'yish hamda sud tizimida aniqlangan har qanday korrupsiyaviy harakatni murosasiz holat deb baholash, sudyalarning kasbiy malakasi, ma'naviyati va mas'uliyatini oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish orqali yuksak professional sudyalar korpusini shakllantirish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dolzarb vazifalar belgilab berildi.

2021-yil 1-fevraldan boshlab, ilk bor sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash bo'yicha imtihon jarayonlarini Internet tarmog'i (veb-sayt) orqali onlayn tarzda yoritib borish yo'lga qo'yildi hamda sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalarning psixologik portreti bo'yicha kasbga munosibligini baholashga ko'maklashuvchi elektron dastur ishlab chiqildi[6, -B.26-28]. Sudya faoliyatining samaradorligini elektron reyting orqali ochiq va shaffof baholashni ta'minlaydigan aniq mezonlar qabul qilindi.

Elektron bilet dasturi sudyalikka nomzodlarni bilimni shaffof holda aniqlaydigan muhim dasturiy ta'minot hisoblanadi. Dastur yordamida sudyalar va sudyalik lavozimlariga nomzodlar bilan suhbat jarayonida beriladigan savollarni axborot tizimi yordamida avtomatlashtirilgan holda tanlash tartibi ishlab chiqilib, amaliyotda foydalanib kelinmoqda[6, -B.26]. Sudyalik lavozimlariga birinchi marta tayinlanadigan nomzodlarni, yangi vakolat muddatiga yoki boshqa sudyalik lavozimlariga nomzodlarni tanlash uchun o'tkaziladigan suhbat jarayonida beriladigan savollarni nomzod axborot tizimi yordamida avtomatlashtirilgan holda tanlaydi.

Sudyalar oliy kengashi majlisining kotibi nomzodning shaxsini tanishtirganidan so'ng raislik qiluvchining ruxsati bilan nomzod kompyuterga ulangan monitorda joylashgan tugmalarni bosish orqali dastlab nomzod turini, sud ixtisosligini hamda o'zi xohlagan bilet raqamini tanlaydi. Nomzod bilet raqamini tanlagandan keyin monitorga bilet raqami va undagi savollar matni chiqadi. Biletidagi barcha savollarga javob berilganidan keyin yakunlash tugmasi bosiladi. Tanlangan bilet raqami boshqa nomzodlar tanlovi uchun ko'rinmaydi, ya'ni savollar takrorlanmaydi. Axborot tizimiga kiritilgan savollar nomzod turi va sud ixtisosligiga qarab avtomatlashtirilgan holda biletarga taqsimlanadi.

Savollarni avtomatlashtirilgan holda tanlash dasturi har safar ishga tushirilganda unga kiritilgan savollar biletarga qaytadan tasodifiy taqsimlanadi, ya'ni har safar biletlardagi savollar almashib turadi. Kengash majlisi yakunlangandan so'ng dasturdagi savollar shu majlisda qaysi

biletlarga taqsimlanganligini aniqlash mumkin. Nomzod tanlagan bilet va undagi savollarni boshqa nomzodlar hamda jamoatchilik vakillari onlayn tarzda bevosita kuzatib borishi mumkin.

Nomzodlarni tanlab olishda imtihon jarayonlarini internet tarmog‘i (veb-sayt) orqali onlayn tarzda yoritib borish yo‘lga qo‘yildi[6, -Б.27]. Imtihon jarayonlarini nafaqat muqobil nomzodlar, balki nomzodning ota-onalari ham kuzatib borishlari mumkin. Sudyalar oliy kengashining Youtube tarmog‘idagi rasmiy kanalida imtihon jarayonlarining onlayn translyatsiya qilish imkoniyati yaratildi.

Sudyalik lavozimiga nomzodlar va sudyalarning psixologik portreti bo‘yicha kasbga munosibligini baholashga ko‘maklashuvchi elektron dastur ishlab chiqilib, sinovdan muvofaqiyatli o‘tgandan so‘ng, to‘liq ishga tushirildi. Sudyalar oliy kengashining 2021-yil 6-mayda 1542-son qarori bilan “Sudyalik lavozimlariga nomzodlar va sudyalarning kasbga munosibligini baholashga ko‘maklashuvchi psixologik test tizimi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi[6, -Б.34].

“Psixologik test” elektron dasturi yordamida shaxsning psixologik holatlari va xususiyatlari baholanadi. Psixologik test natijasi professional psixolog tomonidan o‘rganib chiqilib, tavsiyaviy xarakterga ega bo‘lgan xulosa tuziladi. “Psixologik test” elektron dasturi yordamida shaxsning quyidagi psixologik holatlari va xususiyatlari baholanadi: qat‘iylik, korrupsiyaga moyillik, bosiqlik, jizzakilik, alkogolizmga moyillik, stressga moyillik, stressga chidamlilik, ruhiy kasalliklar.

“Psixologik test” axborot tizimining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

- axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini sudyalikka nomzodlar va sudyalarni tanlash jarayonlariga yanada keng joriy etish;

- sud tizimini malakali va munosib kadrlar bilan to‘ldirish;

- sudyalik lavozimiga o‘tkaziladigan tanlov sifatini oshirish,

- sudyalikka nomzodlar va sudyalarning psixologik xususiyatlari va jihatlarini to‘liq ochish;

- sud tizimida ochiqlik va shaffoflikni ta‘minlash.

2022-yilda 138 nafar sudyalikka nomzodlar va 901 nafar sudyalar psixologik test topshirdi, natijasi bo‘yicha joylarda 258 nafar sudya bilan psixologik treninglar, 40 nafar sudya bilan psixologik suhbatlar o‘tkazildi[7, -Б.24].

Sudyalar oliy kengashining 2021-yil 6-dekabrda 1646-sonli qarori bilan “Sudyalar faoliyati samaradorligini elektron reyting baholash tartibi to‘g‘risida Nizom tasdiqlandi. Nizomga ko‘ra sudyalar faoliyatining samaradorligi inson omilisiz va aralashuvisiz 100 ballik baholash tizimida asosiy va qo‘shimcha mezonlar asosida baholanadi. Sud qarorlarining sifati, sudyaning mas‘uliyati va odobi hamda sudyaning chet tillarini bilishi asosiy baholash mezonlari hisoblanadi[7, -Б.25].

Sudyaning ish hajmi kattaligi, Sudyalar klubi onlayn forumidagi faolligi, ilmiy darajaga egaligi, sudyalarning kasbiy malaka oshirishida qatnashganligi hamda muayyan ish bo‘yicha taraflarning yarashuviga (kelishuviga) erishganligi qo‘shimcha baholash mezonlari hisoblanadi.

2021-yilda faoliyat ko‘rsatkichi qoniqarsiz (56 balldan past) bo‘lgan 42 nafar, 2022-yilda esa 24 nafar sudyaning malakasini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar belgilandi, 6 nafar ko‘rsatkichi yomon (40 balldan past) sudyalarning egallab turgan lavozimiga loyiqligi masalasi ko‘rib chiqish uchun sudyalarning malaka hay‘atlariga yo‘naltirildi[7, -Б.26].

Shubhasiz, sudyalar faoliyati samaradorligini baholash elektron reyting tizimi joriy etilishi sohadagi katta yangiliklardan biri bo‘ldi. Har qanday yangilik, to‘liq natijasi ko‘rinmaguncha, turli bahs-munozaralarga sabab bo‘lishi tabiiy. Bildirilgan taklif-mulohazalardan kelib chiqib, baholash mezonlariga ma‘lum o‘zgartirishlar kiritildi, natijada mezonlar yanada takomillashib, elektron reyting tizimi barcha sudyalar faoliyatini yaqqol ko‘rsatuvchi ko‘zguga aylandi. Inson omili aralashmaydigan ushbu amaliyot natijalari ommaga e‘lon qilinib bormoqda: eng yuqori reyting balliga ega sudyalarni “Ibratli sudya” mukofoti bilan taqdirlanishi yaxshi an‘anaga aylanib ulgurdi. 2022-yilda qo‘shni davlatlardan Qirg‘iziston, Qozog‘iston, Tojikiston, shuningdek, Serbiya va Moldova davlatlari sudyalaridan iborat mehmonlar Sudyalar oliy kengashida bo‘lib, joriy etilgan elektron reyting tizimi, psixologik test va Sudyalar klubi faoliyati bilan tanishib, elektron dasturiy ta‘minotga yuqori baho berdilar va o‘zlari vakil bo‘lgan mamlakat sud tizimiga tadbiq etish foydadan xoli bo‘lmasligini bildirdilar.

Elektron dastur tomonidan ayrim sudyalari faoliyati samaradorligi qoniqarsiz topilganda Sudyalari oliy kengashi keskin chora qo'llamasdan, aksincha, ularning malakasini oshirish bo'yicha zarur choralar ko'rib, tajribasiz sudyalari uchun o'z ustida ishlashi uchun imkoniyat yaratib bermoqda. Chunki bungacha nomzod sudyalik lavozimini egallash uchun bir qator chig'iriqlardan o'tgan hisoblanadi. Ya'ni, sudyalik lavozimini egallash uchun qonunga binoan shaxs 35 yoshdan kichik bo'lmasligi, oliy tahsildan so'ng yetti yil huquq tizimida nuqsonsiz ishlashi, raqobatdan o'tib Sudyalari oliy maktabiga o'qishga kirishi, uni muvaffaqiyatli yakunlashi, muqobillik asosida sudyalik lavozimiga tanlash va tayinlash bo'yicha ochiq tanlovda muvaffaqiyatli ishtirok etishi lozim hisoblanadi.

Reyting ko'rsatgichlari pastroq sudyalari faoliyati o'rganilganda ular tomonidan qabul qilingan sud hujjatlari, asosan, protsessual qonun talablarini bajarilishidagi va moddiy huquq normalarini qo'llashdagi kamchiliklar sabab yuqori sud instansiyasida o'zgartirilgani yoki bekor qilingani ma'lum bo'ldi. Umuman, muayyan nizolar bo'yicha qonun normalarini qo'llashning o'ziga xos murakkabliklari bor. Ya'ni, fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarda mulk, meros, yetkazilgan moddiy va ma'naviy zararlar undirishga oid ishlarda, iqtisodiy sudlarda davlat boji va sud xarajatlari masalalari hamda shartnomaviy munosabatlarga oid nizolar bo'yicha qaror qabul qilishdagi murakkabliklar aniq huquqiy tushuntirishlarga ehtiyoj tug'dirayotgani sir emas Bunday vaziyatlarga ma'muriy sudlar sudyalari mahalliy hokimlik, soliq idoralari qarorlarini haqiqiy emas deb topish hamda yer bilan bog'liq nizolarni ko'rib chiqish jarayonida, jinoyat ishlari bo'yicha sudlarda esa ayrim turdagi jinoyatlarni malakalash, jazo tayinlashda koloniya turini belgilash, ayniqsa, ma'muriy nazorat masalalarida ko'proq duch kelinayotganini ko'rish mumkin. Qayd etilgan masalalar Sudyalari klubining elektron platformasida ham ko'p muhokamalarga sabab bo'lmoqda. Shu kabi holatlar amaliyotda uchrashi ehtimoli borligi uchun ham qonunda sud qarorining bekor qilinishi yoki o'zgartirilishining o'zi agar sudya ataylab qonun buzilishiga yoki jiddiy oqibatlariga olib kelgan vijdotsizlikka yo'l qo'ymagan bo'lsa, sudyaning javobgar bo'lishiga sabab bo'lmasligi belgilab qo'yilgan.

Biroq mazkur norma daxlsizlik kafolatlaridan biri bo'lsada, sudyaga imtiyozdan ko'ra ko'proq mas'uliyat yuklaydi, aslida. "Sudlar to'g'risida"gi qonunda ham, Sudyalari odobi kodeksida ham sudya o'z majburiyatlarini lozim darajada bajarishi uchun o'z malakasi va kasbiy bilimlarini muntazam oshirib borishi shartligi alohida qayd etilgan. Bu borada zarur choralar ko'rish esa Sudyalari oliy kengashi faoliyatining ajralmas qismi hisoblanadi. Qolaversa, Sudyalari odobi kodeksida tajribali sudyalari "ustoz-shogird" an'anasiga tayangan holda o'z tajriba va bilimlarini yosh hamkasblariga o'rgatishlari lozimligi ham qayd etilgan.

Mazkur tartiblar reyting ko'rsatgichlari pastroq sudyalari uchun mo'llanjallangan o'quv dasturi va darslar jadvalida o'z aksini topmoqda. Bekor bo'lgan yoki o'zgartirilgan sud qarorlari tahlilidan kelib chiqib, zarur nazariy mashg'ulot o'tishdan tashqari ularning har biriga tajribali sudyalari - ustozlar biriktiriladi. O'quv-mashg'ulotlarning qolgani amaliyotda biriktirilgan ustoz rahbarligi va rahnamoligida davom etadi.

2022-yilda reyting ko'rsatkichlari qoniqarsiz deb topilgan 24 nafar sudya Kengash huzuridagi Sudyalari oliy maktabining malaka oshirish kurslarida qo'shimcha tahsil oldi. Ularning 6 nafari jinoyat, 12 nafari fuqarolik ishlari bo'yicha, 3 nafari iqtisodiy va yana shunchasi ma'muriy sudlari sudyalari bo'lib, aksariyati ilk bor lavozimiga tayinlanganlar sirasiga kiradi. Ikki hafta davom etgan o'quv-mashg'ulotlari ularning keyingi faoliyatida muhim dasturilamal bo'lib xizmat qildi.

O'zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashining 2021-yil 7-yanvardagi qarori bilan O'zbekiston Sudyalari klubi to'g'risidagi Nizom, Klubning mas'ul a'zolari hamda Klub faoliyatiga ko'maklashuvchi hududiy vakillar tarkibi tasdiqlanib, Klub o'z faoliyatini boshladi[6, -B.29].

Sudyalari klubining elektron platformasida sudyaning daxlsizligi buzilgan holatlar to'g'risida tezkor xabar yuborish, odob-axloq qoidalariga rioya etilishini ta'minlash, o'zaro muloqot asosida sudyalari malakasini oshirish va yagona sud amaliyotini joriy etishga ko'maklashish tizimi yaratildi.

Klubning onlayn forumida sud amaliyotiga oid 6437 ta mavzu bo'yicha o'zaro 140299 marotaba fikr almashinildi, Iqtisodiy ishlar bo'yicha 20848 ta taklif muhokama qilindi.

Forumda fuqarolik ishlari bo'yicha sud amaliyoti 25982 marta, jinoyat ishlari bo'yicha sud amaliyoti 15701 marta, ma'muriy ishlar bo'yicha sud amaliyoti muhokama qilingan[7, -Б.31-32].

Forumda: - sudyalarning moddiy va protsessual huquq normalarini to'g'ri qo'llash bo'yicha tavsiyalar; odob-axloq qoidalarini muayyan vaziyatlarda qo'llanilishi yuzasidan so'rovlarga tushuntirishlar; sudyaning mustaqilligi va dahlsizligi bilan bog'liq masalalar;

- sudlar faoliyatini yanada takomillashtirish va odil sudlov samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar;

- sudyaning ma'naviyati;

- sud tizimidagi yangiliklar va sudyalarning uchun e'lonlar bo'limida muloqot qilish imkoniyati yaratildi.

Faoliyat yuritayotgan sudyalarning va vakant lavozimlar haqidagi ma'lumotlarni avtomatik tahlil qiluvchi elektron dastur ishlab chiqildi. Dastur yordamida mavjud sudyalarning haqida hamda vakant haqidagi batafsil ma'lumotlarni chuqur tahlil qilish imkoniyati yaratildi.

2023-yil 16-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi[8]. Qaror asosida 2023-2026-yillarga mo'ljallangan sud tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishning qisqa muddatli strategiyasi tasdiqlandi. Strategiya doirasida sudlar faoliyatini to'liq raqamlashtirish, sun'iy intellekt texnologiyalarini joriy etish, idoralararo elektron ma'lumot almashinuvini yaxshilash, sud majlislarida masofadan turib ishtirok etish imkoniyatlarini kengaytirish kabi ustuvor vazifalar belgilab olindi.

Bugungi kunda har qanday yuridik va jismoniy shaxs ariza va shikoyatlarini "exsud.sud.uz" sayti orqali elektron ko'rinishda yuborishi mumkin. Shuningdek, Oliy sudi tomonidan "my.sud.uz" sayti orqali "sudga elektron murojaat yuborish", "sudga murojaat namunalari", "davlat boji kalkulyatori", "elektron to'lov tizimi", "sud qarorlarini onlayn olish" kabi interaktiv xizmatlarning yo'lga qo'yilgan fuqarolarning murojaat qilish imkoniyatini kengaytirmoqda. Shuningdek, ma'lumotlarni onlayn tarzda olish imkonini beruvchi "stat.sud.uz" sayti ishga tushirilganini alohida ta'kidlash joiz.

Umuman olganda sud tizimining raqamlashtirilishi sudyalarning ish faoliyatini yengillashtirishga xizmat qilmoqda. Buni "Adolat" axborot tizimlari kompleksi orqali ko'rish mumkin. Mazkur tizim orqali davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, xo'jalik boshqaruvi organlari, advokatlar tomonidan sudlarga da'vo, ariza va shikoyatlarni faqat elektron shaklda taqdim etish, manfaatdor shaxslar tomonidan da'vo, ariza va shikoyatlarni ko'rib chiqish jarayonini onlayn tarzda kuzatib borish, sud majlisi ishtirokchilari tomonidan ma'lumotlar va hujjatlarni elektron shaklda yuborish va sud hujjatlarini sudlar faoliyatiga joriy etilgan axborot tizimidan foydalangan holda avtomatlashtirilgan ravishda shakllantirish imkonini bermoqda.

**4.Xulosa** o'rnida aytganda, yuqorida qayd etilgan yangiliklar sud tizimiga to'liq tatbiq etilishi sohaning ochiqligi, shaffofligi va tezkorligini ta'minlamoqda. Sudyalarning ochiq tanlov asosida raqamli texnologiyalar yordamida lavozimga tayinlanishi, davlat organlari va sud tizimi o'rtasida axborot tizimlarining integratsiya qilinishi odil sudlov samaradorligini oshirmoqda. Bularning barchasi esa sohada yangi sifat ko'rsatkichlariga erishishga yo'l ochib, eng muhimi, xalqning sud tizimidan rozi bo'lishiga zamin yaratmoqda.

#### Iqtiboslar / Сноски / References:

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasi sud tizimi tuzilmasini tubdan takomillashtirish va faoliyati samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni // "Xalq so'zi" gazetasi, 2017-yil 22-fevral. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 21, 2017 "On measures to radically improve the structure of the judicial system of the Republic of Uzbekistan and increase the efficiency of its activities" // "Xalq so'zi" newspaper, February 22, 2017].

2.Sudlar faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishning dolzarb masalalari // «Yangi O‘zbekiston» gazetasi, 2020-yil 7-sentabr. [Current issues of introducing modern information and communication technologies into the activities of courts // “Yangi U‘zbekiston” newspaper, September 7, 2020].

3.Navbatdagi chora-tadbirlar: endi sudlarga berilgan da’volarni ko‘rib chiqish jarayonini onlayn kuzatish mumkin bo‘ladi // «Xalq so‘zi» gazetasi, 2020-yil 6-sentabr. [Upcoming measures: now it will be possible to monitor the process of considering claims submitted to the courts online // “Xalq so‘zi” newspaper, September 6, 2020].

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 3-sentabrdagi “Sud hokimiyati organlari faoliyatini raqamlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/4979896>. [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 3, 2020 “On measures to digitize the activities of judicial authorities”. Electronic source: <https://lex.uz/docs/4979896>].

5.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-dekabrdagi “Sudyalarning chinakam mustaqilligini ta’minlash hamda sud tizimida korrupsiyaning oldini olish samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni. Elektron manba: <https://lex.uz/docs/5146554>. [Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated December 7, 2020 “On measures to ensure the true independence of judges and increase the effectiveness of preventing corruption in the judicial system”. Electronic source: <https://lex.uz/docs/5146554>].

6.Sudyalar oliy kengashining 2021-yildagi faoliyati. Axborotnoma. –Toshkent, 2022. –B.26-28. [Activities of the Supreme Council of Judges in 2021. Newsletter. –Tashkent, 2022. –P.26-28].

7.Sudyalar oliy kengashining 2022-yildagi faoliyati. Axborotnoma. –Toshkent, 2023. –B.24. [Activities of the Supreme Council of Judges in 2022. Newsletter. –Tashkent, 2023. –P.24].

8.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 16-yanvardagi “Odil sudlovga erishish imkoniyatlarini yanada kengaytirish va sudlar faoliyati samaradorligini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori. Elektron manba: <https://lex.uz/uz/docs/6358976> [Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated January 16, 2023 “On additional measures to further expand opportunities for access to fair trial and increase the effectiveness of the activities of courts”. Electronic source: <https://lex.uz/uz/docs/6358976>].



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 1 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 1

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 1

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)

ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)

Тел: (+998-94) 404-0000